

“TEMUR TUZUKLARI” INGLIZCHA TARJIMASIDA TARIXIY NOMLARNI STANDARTLASHTIRISH MEZONLARI

Abdullayev Shaxzod Fazliddin o'g'li

O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

abdullaev.sh.f@gmail.com; +998971557767

Annotasiya. Mazkur tezisda “Temur Tuzuklari” asarining inglizcha tarjimasida uchraydigan tarixiy nomlarni standartlashtirish masalasi tarjimashunoslik, onomastika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tarixiy nomlar tarkibiga kiruvchi etnonimlar, qabila nomlari, antroponimlar, toponimlar, hukmdorlik unvonlari hamda diniy-ijtimoiy maqom birliklarining ingliz tilida qayta ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy nomlarni tarjima qilishda qo'llanadigan transliteratsiya, transkripsiya, grafik-fonetik moslashtirish, normallashtirish, xalqaro standart shakldan foydalanish va izohli tarjima strategiyalarining samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: tarixiy nom, onomastik birlik, standartlashtirish, transliteratsiya, transkripsiya, normallashtirish, tarixiy-referensial ekvivalentlik, grafik izchillik, xalqaro tanib olinuvchanlik, tarixiy autentiklik, lingvokulturologik transfer.

KIRISH. Tarixiy matn tarjimasi til birliklarini bir tizimdan ikkinchi tizimga mexanik tarzda ko'chirish emas, balki muayyan davrga tegishli siyosiy, etnik, geografik va madaniy axborotni boshqa til vositalari orqali qayta tiklash jarayonidir. Bunday matnlarda tarixiy nomlar alohida o'rin tutadi, chunki ular nafaqat shaxs, hudud, qabila yoki ijtimoiy institutni nomlaydi, balki muayyan davrning tarixiy xotirasi, siyosiy tuzilishi, etnik tarkibi va madaniy identifikatsiyasini ham kodlaydi. Shu sababli tarixiy nomlarning tarjimada noaniq, beqaror yoki standartlashmagan shaklda berilishi matnning referensial aniqligiga, ilmiy ishonchliligiga va o'quvchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy nomlarni standartlashtirishda ularning turiga ko'ra differensial yondashuv talab etiladi. Etnonim va qabila nomlari xalqaro tarixshunoslikda shakllangan variantlar bilan muvofiqlashtirilishi zarur. Antroponimlarda shaxs nomining tarixiy manbalarda tan olingan shakli, toponimlarda geografik identifikatsiya va zamonaviy nom bilan tarixiy nom o'rtasidagi aloqa, unvon va ijtimoiy maqom birliklarida esa institutsional mazmun hamda iyerarxik daraja hisobga olinishi lozim. Masalan, *xoqon* uchun *Khagan*, *vazir* uchun *Vizier*, *xon* uchun *Khan* kabi shakllar xalqaro tarixiy adabiyotlarda barqarorlashgan bo'lsa, kam tanilgan qabila yoki urug' nomlari normallashtirilgan transliteratsiya va izoh orqali berilishi mumkin.

Mazkur tezisning dolzarbligi “Temur Tuzuklari” inglizcha tarjimasidagi tarixiy nomlarni yagona ilmiy mezonlar asosida qayta baholash zarurati bilan belgilanadi. Tarjimaning yaratilgan davri, eski ingliz imlo me’yorlari va vositachi tillarning ta’siri natijasida shakllangan variantlar zamonaviy tarixshunoslik va tarjimashunoslik talablariga har doim ham javob bermaydi. Ularni standartlashtirish matnning tarixiy qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, nomlarning to’g’ri identifikatsiyasi, xalqaro ilmiy muomalaga mosligi va tarjima o’quvchisi uchun tushunarligini oshiradi.

Tarixiy nomlarni tarjima qilish va standartlashtirish masalasi tarjimashunoslik, onomastika, terminologiya, tarixshunoslik hamda lingvokulturologiyaning o’zaro tutashgan nuqtasida o’rganiladi. Mazkur muammo bo’yicha mavjud nazariy qarashlar tarixiy nomni faqat grafik shakl sifatida emas, balki referensial, madaniy va kommunikativ axborotni birlashtiruvchi murakkab birlik sifatida baholash zarurligini ko’rsatadi.

S.Bassnett tarjimani madaniyatlararo transfer hodisasi sifatida talqin qilib, tarixiy va milliy xoslangan birliklarning tarjimada qayta ifodalanishi ularni vujudga keltirgan madaniy kontekst bilan uzviy bog’liq ekanini ta’kidlaydi. Ushbu qarash tarixiy nomlarning standartlashtirilishini faqat texnik imlo masalasi sifatida emas, balki madaniy identifikatsiyani qayta yaratish jarayoni sifatida tushunishga imkon beradi. “Temur Tuzuklari”dagi qabila, hudud va unvon nomlarining tarixiy kontekstdan ajratilgan holda standartlashtirilishi ularning madaniy yuklamasini kamaytirishi mumkin. Shu sababli standart shaklni tanlashda nomning etnik va tarixiy mansubligi saqlanishi kerak.

P.Nyumark atoqli otlar va madaniy birliklarni tarjima qilishda *transference*, *naturalization*, *recognized translation*, *functional equivalent* va *descriptive equivalent* strategiyalarini ajratadi. Olimning *recognized translation* tamoyiliga ko’ra, tarjima tilida allaqachon barqarorlashgan va ilmiy muomalada tan olingan variant mavjud bo’lsa, yangi grafik shakl yaratish maqsadga muvofiq emas. Mazkur yondashuv *moghol* o’rniga *Mongol*, *kypchauk* o’rniga *Kipchak*, *khaukaun* o’rniga *Khagan* shakllaridan foydalanish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi. Biroq xalqaro variant mavjud bo’lmagan hollarda normallashtirilgan transliteratsiya va tavsifiy izohdan foydalanish talab etiladi.

K.Nordning funksionalistik yondashuvida tarjima strategiyasi matnning maqsadi va qabul qiluvchi auditoriyaning ehtiyojidan kelib chiqib tanlanadi. Tarixiy nomlar tarjimasida ham shaklning asliyatga yaqinligi bilan bir qatorda, uning o’quvchi tomonidan tanib olinishi va matndagi vazifasi muhim. Agar eski yoki murakkab transliteratsiya tarixiy nomning identifikatsiyasini qiyinlashtirsa, bunday shakl tarjimaning kommunikativ maqsadiga to’liq xizmat qilmaydi. Shu bois ilmiy tarjimada xalqaro standart shaklni asosiy variant sifatida berish, tarixiy yoki manba shaklni esa qavs, izoh yoki glossariyda ko’rsatish funksional jihatdan samarali usul hisoblanadi.

A.V. Fedorov tarixiy birliklarni tarjima qilishda semantik mazmun, funksional vazifa va uslubiy rangning birgalikda saqlanishiga urg'u beradi. Tarixiy nomning standartlashtirilgan shakli uning referentini aniq ko'rsatishi bilan birga, davr koloritini ham yo'qotmasligi kerak. Masalan, tarixiy unvonni zamonaviy ma'muriy termin bilan almashtirish uning davriy va institutsional xususiyatini buzishi mumkin. Shu sababli *vizier*, *khan*, *khagan* singari tarixiy ekvivalentlardan foydalanish umumiy ma'noli *minister* yoki *ruler* birliklariga nisbatan ilmiy jihatdan aniqroqdir.

A.V. Superanskaya atoqli nomni murakkab onomastik belgi sifatida tavsiflab, uning til tizimidagi shakli bilan ekstralingvistik referenti o'rtasidagi bog'liqlikni alohida ta'kidlaydi. Olimning qarashlari asosida tarixiy nomlarni standartlashtirishda ularning etimologiyasi, fonetik variantlari, tarixiy yozuv shakllari va referensial mansubligini birgalikda hisobga olish lozimligi kelib chiqadi. Bir xil yoki o'xshash grafik shaklga ega nomlarning turli tarixiy obyektlarni ifodalashi mumkinligi sababli standartlashtirishdan oldin referentni aniq identifikatsiya qilish muhimdir.

V.N. Komissarov tarjima ekvivalentligini turli darajalarda tahlil qilib, kommunikativ maqsad va vaziyat tavsifining saqlanishini tarjimaning asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi. Tarixiy nomlarda ekvivalentlik nomning tashqi shakli bilan emas, balki uning muayyan shaxs, hudud yoki etnik guruhni to'g'ri ifodalashi bilan belgilanadi. Demak, tarixiy nomning fonetik jihatdan asliyatga yaqin, biroq referensial jihatdan noaniq tarjimasi to'liq ekvivalent hisoblanmaydi. Terminologik standartlashtirishga oid tadqiqotlarda birlikning bir ma'noliligi, izchilligi, tizimliliigi va xalqaro muvofiqligi asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi. Tarixiy nomlar sof termin bo'lmasa-da, ilmiy tarixiy matnda ular terminologik vazifa bajaradi. Shu sababli bitta nomning matn davomida bir necha variantda berilishi ilmiy aniqlikni buzadi. Tarjima matni uchun dastlab maxsus onomastik ro'yxat yoki glossariy tuzish, har bir nomning tavsiya etilgan shaklini belgilash va uning qo'llanishini butun matn bo'ylab nazorat qilish standartlashtirishning muhim amaliy sharti hisoblanadi.

"Temur Tuzuklari"ning U.Deyvi tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasida tarixiy nomlarning berilish xususiyatlari tahlili tarjimon asosan fonetik transliteratsiya strategiyasiga tayanganini ko'rsatdi. Tarjimada etnonimlar, qabila nomlari va tarixiy unvonlar manba matndagi tovush shakliga yaqinlashtirib qayta ifodalangan. Jumladan, *arg'in* nomi *arghoon*, *tulkichi* – *toulkchee*, *dulday* – *douldee*, *mo'g'ul* – *moghol*, *sulduz* – *suldoze*, *tug'oy* – *toughauee*, *qipchoq* – *kypchauk*, *orlot* – *aurlaut*, *totor* esa *tautaur* shaklida berilgan.

Mazkur shakllarda tarixiy nomlarning milliy va etnik xususiyatini saqlashga intilish yaqqol ko'rinadi. Tarjimon ularni umumiy ma'noli inglizcha birliklar bilan almashtirmagan, balki talaffuzini ingliz grafikasi vositalari orqali qayta yaratishga uringan. Bu usul tarixiy nomlarning begonalik belgisi va manba madaniyatiga mansubligini saqlagan. Biroq transliteratsiyaning yagona ilmiy tizimga asoslanmagani

nomlarning grafik barqarorligi va xalqaro tanib olinuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

1-jadval

“Temur Tuzuklari” inglizcha tarjimasidagi tarixiy nomlarning standartlashtirish mezonlari asosida baholanishi

№	Manba tilidagi shakl	U.Deyvi tarjimasi	Tavsiya etiladigan standart shakl	Standartlashuv holati
1	arg'in	<i>arghoon</i>	<i>Argyn</i>	qisman standartlashgan
2	tulkichi	<i>toulkchee</i>	<i>Tulkichi</i>	grafik jihatdan murakkab
3	dulday	<i>douldee</i>	<i>Dulday</i>	fonetik mos, grafik beqaror
4	mo'g'ul	<i>moghol</i>	<i>Mongol</i>	xalqaro shaklga nomuvofiq
5	sulduz	<i>suldoze</i>	<i>Suldus</i>	standartlashmagan
6	tug'oy	<i>toughauee</i>	<i>Tughay</i>	ortiqcha grafik elementli
7	qipchoq	<i>kypchauk</i>	<i>Kipchak/Qipchaq</i>	xalqaro shaklga nomuvofiq
8	orlot	<i>aurlaut</i>	<i>Arulad</i>	tarixiy identifikatsiyasi murakkab
9	totor	<i>tautaur</i>	<i>Tatar</i>	standart shakldan uzoqlashgan
10	xoqon	<i>khaukaun</i>	<i>Khagan</i>	tarixiy unvon standartlashmagan

Jadvaldagi birliklarning aksariyati tarjimonning talaffuzni imkon qadar saqlashga intilganini ko'rsatadi. Biroq tarixiy nomlarni standartlashtirishda fonetik yaqinlikning o'zi yetarli mezon hisoblanmaydi. Nomning zamonaviy tarixshunoslikdagi shakli, ilmiy muomaladagi barqarorligi, referensial aniqligi va tarjima o'quvchisi tomonidan tanib olinishi ham e'tiborga olinishi kerak.

Masalan, *mo'g'ul* etnonimining *moghol* shaklida berilishi tarixiy talaffuzga yaqinlashishga qaratilgan. Ammo zamonaviy ingliz tilida *Mongol* shakli tarixiy, etnologik va geografik adabiyotlarda barqaror qo'llanadi. Bundan tashqari, *moghol* shakli grafik jihatdan *Mughal* nomiga yaqin bo'lib, ingliz o'quvchisida boshqa tarixiy-siyosiy birlik bilan bog'liq assotsiatsiya hosil qilishi mumkin. Shu sababli *Mongol* shakli referensial aniqlik va xalqaro tanib olinuvchanlik mezonlariga ko'proq mos keladi.

Qipchoq nomining *kypchauk* tarzida berilishi ham eski fonetik transliteratsiyaning mahsuli hisoblanadi. Ushbu shakl manba birlik talaffuzini qisman qayta yaratgan bo'lsa-da, ingliz tarixshunosligidagi *Kipchak* yoki turkologik adabiyotlarda uchraydigan *Qipchaq* shakllari bilan mos kelmaydi. Natijada nomning boshqa ilmiy manbalardagi shakllari bilan bog'lanishi qiyinlashadi. Shuning uchun asosiy variant sifatida *Kipchak*, zarur holatda esa qavs ichida *Qipchaq* shaklini ko'rsatish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Totor–tautaur juftligida ham talaffuzga asoslangan grafik kengayish kuzatiladi. *Tautaur* shakli etnonimning tovush xususiyatini qayta berishga xizmat qilsa-da, ingliz o'quvchisi tomonidan umumqabul qilingan *Tatar* shakli bilan darhol bog'lanmaydi. Bu esa tarixiy nomning nominativ vazifasi saqlangan bo'lsa ham, kommunikativ va referensial vazifasini susaytiradi.

Tug'oy nomining *toughauee* tarzida berilishi grafik murakkablikning yaqqol misolidir. Ingliz tilida *tough* harf birikmasining talaffuzi nomning manba shakliga mos kelmaydi. Shu sababli tarjima o'quvchisi nomni noto'g'ri talaffuz qilishi ehtimoli yuqori. *Tughay* shakli esa fonetik yaqinlik, grafik ixchamlik va o'qish qulayligi mezonlariga ko'proq javob beradi.

Xoqon unvonining *khaukaun* shaklida ifodalanishi tarixiy koloritni saqlashga qaratilgan bo'lsa-da, ingliz tarixiy adabiyotida barqarorlashgan *Khagan* variantidan uzoqlashgan. Dissertatsiya materiallarida ham *khaukaun* shaklining terminologik izchillik va tanib olinuvchanlik jihatidan muammoli ekani, *khagan* varianti esa tarixiy maqomni aniqroq ifodalashi ko'rsatilgan. Tahlil natijasida tarixiy nomlarni standartlashtirish uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

1. Tarixiy-referensial aniqlik. Tarjima shakli aniq bir tarixiy shaxs, qabila, hudud yoki unvonga yo'naltirishi lozim.
2. Xalqaro tanib olinuvchanlik. Ingliz tarixshunosligida barqarorlashgan shakl mavjud bo'lsa, shu variantdan foydalanish kerak.
3. Grafik izchillik. Bir xil tovush yoki morfema turli nomlarda turlicha ifodalanmasligi lozim.
4. Fonetik yaqinlik. Standart shakl manba nomning talaffuz xususiyatini imkon qadar saqlashi kerak.
5. Madaniy autentiklik. Nomning milliy va tarixiy mansubligi tarjimada yo'qolmasligi zarur.
6. Kontekstual muvofiqlik. Unvon, etnonim yoki toponimning tarjimasi matndagi vazifasiga mos bo'lishi kerak.
7. Matn bo'ylab barqarorlik. Tanlangan shakl tarjima davomida o'zgarmasdan izchil qo'llanishi lozim.

2-jadval

Tarixiy nomlarni standartlashtirish mezonlarining amaliy tavsifi

Mezon	Tahlilda aniqlangan muammo	Tavsiya etiladigan yechim
Referensial aniqlik	nomning qaysi tarixiy birlikni anglatishi noaniqlashadi	tarixiy va etnografik manbalarni qiyoslash
Xalqaro tanib olinuvchanlik	eski shakl zamonaviy manbalarda uchramaydi	tan olingan xalqaro variantdan foydalanish
Grafik izchillik	bir xil tovush turlicha harf birikmalari bilan beriladi	yagona transliteratsiya tizimini tanlash
Fonetik yaqinlik	inglizcha yozuv noto'g'ri talaffuzga olib keladi	ixcham va me'yoriy fonetik shakl yaratish
Madaniy autentiklik	haddan tashqari mahalliyashtirish tarixiy koloritni kamaytiradi	transliteratsiya va izohni uyg'unlashtirish
Kontekstual muvofiqlik	unvon yoki nom umumiy so'z bilan almashtiriladi	funksional-tarixiy ekvivalentni tanlash
Terminologik barqarorlik	bir nom bir necha variantda beriladi	onomastik glossariy tuzish

Tahlil qilingan o'nta birlikning barchasida tarixiy nomni saqlashga yo'naltirilgan transliteratsiya yoki fonetik moslashtirish kuzatildi. Biroq ulardan faqat ayrimlari manba shaklni qisman aniq yetkazgan, ko'pchiligi esa xalqaro ilmiy standartlardan farq qilgan. Ayniqsa, *moghol*, *kypchauk*, *tautaur*, *suldoze*, *aurlaut* va *khaukaun* kabi shakllar zamonaviy ingliz tarixshunosligida barqarorlashgan variantlarga mos kelmagani sababli ilmiy identifikatsiyani murakkablashtiradi.

XULOSA

“Temur Tuzuklari”ning inglizcha tarjimasida tarixiy nomlarning berilishini tahlil qilish ushbu birliklarni standartlashtirish tarjimaning ilmiy aniqligi va tarixiy ishonchliligini ta'minlashda muhim ekanini ko'rsatdi. Tarixiy nomlar shaxs, qabila, hudud yoki unvonni oddiy nomlash bilan cheklanmay, muayyan davrning siyosiy tuzilishi, etnik tarkibi, ijtimoiy iyerarxiyasi va madaniy xotirasini ham ifodalaydi. Shu sababli ularning tarjimada grafik jihatdan beqaror yoki xalqaro tarixshunoslikdagi shakllardan farqli berilishi tarixiy referentning noaniqlashtirishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil natijasida U.Deyvi tarjimasida tarixiy nomlarni qayta ifodalashda fonetik transliteratsiya yetakchi strategiya sifatida qo'llangani aniqlandi. *Arghoon*, *toulkchee*, *douldee*, *moghol*, *suldoze*, *toughauee*, *kypchauk*, *aurlaut*, *tautaur* va *khaukaun* kabi shakllar nomlarning manba matndagi talaffuziga yaqinlashtirishga qaratilgan. Ushbu usul tarixiy birliklarning begonalik belgisi va milliy-madaniy xususiyatini saqlagan bo'lsa-da, yagona transliteratsiya tamoyiliga asoslanmagani sababli grafik murakkablik hamda variantlilikni yuzaga keltirgan.

Ayniqsa, *moghol*, *kypchauk*, *suldoze*, *tautaur*, *aurlaut* va *khaukaun* shakllarining zamonaviy ingliz tarixshunosligida barqarorlashgan *Mongol*, *Kipchak*, *Suldus*, *Tatar*, *Arulad* va *Khagan* variantlari bilan mos kelmasligi tarixiy nomlarning xalqaro tanib olinuvchanligini pasaytiradi. Bunday nomlarni elektron kataloglar, ilmiy bazalar va tarixiy manbalardan izlashda ham muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Demak, tarixiy nomning asliyat talaffuziga yaqinligi tarjimaning to'liq adekvatligini ta'minlovchi yagona mezon bo'la olmaydi.

Tadqiqot asosida tarixiy nomlarni standartlashtirishning tarixiy-referensial aniqlik, xalqaro tanib olinuvchanlik, grafik va fonetik izchillik, madaniy autentiklik, kontekstual muvofiqlik hamda matn bo'ylab terminologik barqarorlik kabi asosiy mezonlari belgilandi. Ushbu mezonlar birgalikda qo'llangandagina tarixiy nomning shakli, mazmuni va referenti o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi.

Tarixiy nomlarni standartlashtirishda differensial yondashuv zarur. Etnonim va qabila nomlari xalqaro tarixshunoslikda tan olingan shakllarga muvofiqlashtirilishi, kam tanilgan nomlar esa normallashtirilgan transliteratsiya va qisqa izoh bilan berilishi lozim. Tarixiy unvonlarda *Khan*, *Khagan*, *Vizier* kabi barqarorlashgan ekvivalentlardan foydalanish, antroponim va toponimlarda esa tarixiy shakl bilan zamonaviy xalqaro variant o'rtasidagi aloqani ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tarixiy nomlarni tarjima qilishdan oldin maxsus onomastik glossariy tuzish, har bir birlikning tavsiya etiladigan inglizcha shaklini belgilash va ushbu shaklning butun matn davomida izchil qo'llanishini nazorat qilish zarur. Bunday yondashuv tarjimada bir nomning bir nechta variantda berilishining oldini oladi va matnning terminologik yaxlitligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, "Temur Tuzuklari" inglizcha tarjimasidagi tarixiy nomlarni standartlashtirish ularning milliy-madaniy xususiyatini yo'qotish emas, balki tarixiy referentni aniq ifodalash, zamonaviy ilmiy muomala bilan uyg'unlashtirish va o'quvchi uchun tanib olinuvchanlikni oshirish vositasidir. Xalqaro standart shakl, normallashtirilgan transliteratsiya va izohli tarjimani uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuv tarixiy nomlarni ingliz tilida qayta ifodalashning eng samarali modeli sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bassnett, S. *Translation Studies*. 4th ed. London and New York: Routledge, 2014.
2. Davy, J. *The Institutes, Political and Military, Written Originally in the Mogul Language by the Great Timour*. Oxford: Clarendon Press, 1783.
3. Fedorov, A.V. *Osnovy obshchey teorii perevoda: lingvisticheskiye problemy*. Moskva: Vysshaya shkola, 1983.
4. House, J. *Translation Quality Assessment: Past and Present*. London and New York: Routledge, 2015.
5. Komissarov, V.N. *Teoriya perevoda: lingvisticheskiye aspekty*. Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
6. Newmark, P. *Approaches to Translation*. Oxford: Pergamon Press, 1981.
7. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. New York and London: Prentice Hall, 1988.
8. Nord, Ch. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
9. Nord, Ch. *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. 2nd ed. Amsterdam and New York: Rodopi, 2005.